



## ISTE'MOL BOZORI


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-aprel

Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 %ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 5,8 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,4 %ni tashkil qildi.


**2018 yil yanvar-aprel oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (38,9 foiz), Sirdaryo (11,6 foiz), Guliston (8,8 foiz) va

Sardoba (8,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

### Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qoʻshgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 1,4 foizga oshib, 915,1 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-mart oylarida 731,2 ming so'mni tashkil qilgan edi).

Oʻrtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Guliston shahri (3295,7 ming soʻm), Yangiyer shahri (1437,2 ming soʻm) va Sardoba tumanida (1037,2 ming soʻm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 10,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi va 0,7 %ga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,4 %ni tashkil etdi.



### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming soʻm	oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>915,1</b>	<b>101,4</b>
Guliston shahar	3295,7	82,1
Shirin shahar	511,8	93,4
Yangier shahar	1437,2	100,3
Boyovut tumani	323,1	96,3
Guliston tumani	948,7	96,9
Mirzaobod tumani	651,7	97,6
Oqoltin tumani	490,9	95,4
Sardoba tumani	1037,2	101,6
Sayxunobod tumani	414,5	103,1
Sirdaryo tumani	699,1	101,8
Xovos tumani	300,1	93,9

## KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 %ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 94,2 %ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 68,9 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,2 %ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston tumanida 99,6 %, Sardoba tumanida 99,6 %, Xovos tumanida 98,9 %, Oqoltin tumanida 98,7 %, Mirzaobod tumanida 97,5 % va eng past ulush Guliston shahrida 89,6 % qayd etildi.

## 2018 yil yanvar-aprel oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-aprel oylarida ulgurji tovar aylanmasi 348,4 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 227,0 %, Sardoba tumani 117,9 %, Guliston shahar 117,5 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 4,1 %ga oshdi va 154,3 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 56,9 %ni tashkil qildi.



Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi boshliq o'rinbosari

Nashr uchun mas'ul: B.Mamadaliyev  
(0371) 230-86-16